

ADVOKATLAR MALAKA OSHIRISHINING SHAKLLARI

To'ychiyeva Malika Botir qizi

*Tayanch doktorant, o'qituvchi, Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va
advokatura kafedrası, Toshkent davlat yuridik universiteti
malikatuychiyeva97@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston*

Annotatsiya. *Ma'lumki, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka asosan, advokatga doimiy ravishda o'z kasbiy malakasini oshirishi shart qilib belgilangan. Malaka oshirish shaklini mustaqil tanlay olish ko'zlangan natijaga erishishdagi muhim qadamdir. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada advokatlarning malaka oshirishiga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi. Shu bilan birgalikda, malaka oshirishning turli shakllari ko'rib chiqiladi. Maqolada, bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi advokatlarning malaka oshirishiga qo'yilgan talablar va mavjud shakllari yoritib beriladi. Shuningdek, qiyosiy tahlil qilingan holda bir qator taklif va xulosalar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *advokat, advokatura, malaka oshirish, advokat mustaqilligi.*

O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning o'z oldiga qo'ygan muhim vazifalardan biridir. Mazkur vazifani ta'minlashda davlat va jamiyat hayotida advokatlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Shuning uchun, yuksak bilim va tajribaga ega, jamiyat uchun har tomonlama o'rnak bo'la oladigan advokatlarni tayyorlash va bunga mos ravishda ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari ham bunga alohida e'tibor qaratib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonida ham advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish maqsadida advokatlarning malakasini oshirishning zamonaviy va xalqaro standartlarga mos keluvchi va muqobillik tamoyiliga asoslangan tizimini joriy etish vazifasi belgilandi [1].

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, advokat o'z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, Advokatlarning palatasi tomonidan belgilangan tartibda uch yilda kamida bir marta kasbiy malakasini oshirishi shart [2].

Ammo, malaka oshirishning bir qancha shakllari bo'lib, qonunchilikda advokatlarning malakasini oshirish aynan qanday ko'rinishda bo'lishi va uning davomiyligi aniqlashtirilmagan.

Bugungi kunda advokatlarning malakasini oshirish Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida amalga oshirilmoqda. Vazirlar

Mahkamasi qaroriga asosan, mazkur institutda advokatlar uchun 72 soat bo'lgan malaka oshirish kurslari tashkil etilgan bo'lib, o'qitish kredit-modul tizimiga asoslangan. O'qitishning davomiyligi 1-4 haftani tashkil etadi hamda ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'z ichiga qamrab olgan [3].

Malaka oshirishning mazkur ko'rinishi bir qator afzalliklarga ega bo'lib, kasbiy huquqiy ongini yanada rivojlantirish, undagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda o'zini oqlaydigan o'qitish shaklidir. Bu advokatlarga kundalik ish faoliyatidan biroz chetlanib, yuridik fan olimlarining nazariy va amaliy ma'ruzalarini tinglash orqali bilimlarini boyitishga imkon yaratadi. Shuningdek, seminar va amaliy mashg'ulotlarda to'plangan tajriba almashish, qiziqtirgan masalalar bo'yicha malakali maslahat olish imkonini beradi. Bularning barchasi tinglovchilarning keyingi ish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ish samaradorligini oshiradi va ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish yo'lida o'z ustida ishlashlari uchun zamin yaratadi.

Mamlakatimizda mavjud qonunchilikka ko'ra, advokatura — huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, advokatura o'z faoliyatini qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida amalga oshiradi [2]. Bizning fikrimizcha, advokat mustaqilligi asosiy tamoyil sifatida ko'rsatilgan ekan, bu mustaqillik malaka oshirish shakllarini tanlashda ham joriy etilishi kerak. Chunki, advokat qaysi yo'nalishda ko'proq bilimlarini oshirishi zarurligi to'g'risida faqat o'zi aniq tasavvurga ega bo'la oladi va bu ehtiyoj barcha advokatlarda turlichadir. Ba'zi advokatlarda malaka oshirish huquqiy bilimlarini takomillashtirish uchun zarur bo'lsa, boshqasi esa, nutqni ta'sirli yetkazish bo'yicha zarur ko'nikmalarni egallashga ehtiyoj sezishi mumkin. Hatto, bilimlarini oshirish zarur bo'lgan huquq sohasi(fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy, ma'muriy) ham hammada turlicha bo'lishi mumkin.

Xorijiy davlatlar tajribasiga yuzlanadigan bo'lsak, ko'plab mamlakatlarda malaka oshirish majburiy hisoblanadi, ammo uning qanday shaklda bo'lishi ixtiyoriy va aniq davomiyligi ko'rsatilgan. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, Avstriyada barcha advokatlar uchun doimiy ravishda malaka oshirish majburiy hisoblanadi. Biroq, bu borada belgilangan yagona tizimi mavjud emas. Qonunga ko'ra, har bir advokat malaka oshirish bo'yicha o'z majburiyatini qanday bajarishini mustaqil ravishda belgilaydi. Masalan, turli huquq sohalaridagi yangiliklarga bag'ishlangan seminarlar orqali o'z bilimini yangilab borishi mumkin. Hatto, ushbu majburiyatni huquqiy jurnallar va byulletenlarni o'qish, maqolalar yozish yoki huquqiy yangiliklar bo'yicha ma'ruzalar o'qish orqali ham bajarish mumkin.

E-learning (masofaviy ta'lim) ham uzluksiz huquqiy malaka oshirish shakli sifatida qabul qilinadi.

Bolgariyada ham barcha advokatlar uchun doimiy ravishda o'z malakasini oshirish majburiy hisoblanadi. Advokatlar yiliga har bir akademik soat 90 daqiqaga teng bo'lgan kamida to'rtta akademik soatlik ta'limdan o'tishi kerak.

Mazkur davlatda advokatlar uchun uzluksiz ta'lim bo'yicha akkreditatsiya tizimi mavjud emas. Advokatlar ta'lim shakli va mavzusini erkin tanlash huquqiga ega. Malaka oshirish majburiyatini Yevropa Ittifoqining boshqa a'zo davlatlarida o'tkaziladigan ta'lim tadbirlarida ishtirok etish orqali ham bajarish mumkin.

Daniyada ham barcha advokatlar uchun malaka oshirish majburiy hisoblanadi. Uch yil davomida kamida 54 ta dars (har biri 45 daqiqalik) o'tilishi talab etiladi. Kurslar, til kurslari, dars mashg'ulotlari olib borish, maqola yozish hamda nashr etish va boshqa ta'lim faoliyatlari, shuningdek, xorijdagi malaka oshirish tadbirlari ham tan olinadi. E-learning (masofaviy ta'lim) orqali olingan malaka oshirish ballari ham qabul qilinadi; har 45 daqiqa bitta dars sifatida hisoblanadi [4].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xorijiy mamlakatlar tajribasida malaka oshirishning turli shakllari mavjud bo'lib, mamlakatimizda ham buni mustaqil tanlash imkonini berish advokat mustaqilligini ta'minlashdagi muhim qadam bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2025-y., 06/25/56/0274-son. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

2. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni. 27.12.1996 yildagi 349-I-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son. Available at: <https://lex.uz/uz/docs/-54503>

3. "Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-son qaroriga 2-ilova. Available at: <https://www.lex.uz/uz/docs/-7437170>

4. https://www.era.int/cgi-bin/cms?_SID=84a9b6e627031172986690c4a1a9075a0b7bf87c01126141409928&_sprache=en&_bereich=artikel&_aktion=detail&_persistant_variant=%2FAbout%20ERA%2FTarget%20groups%2FLawyers%20in%20private%20practice%2FContinuing%20Professional%20Development&_template_variant3=Continuing%20Professional%20Development&idartikel=127523